

**Sobirjonova Nasiba G‘ofurjon qizi**

*O‘zbekiston jahon tillari universiteti Angren fakulteti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ingliz tilida so‘z yasash jarayonlari va ularning til rivojidadagi ahamiyati tahlil qilinadi. Ingliz tilida yangi so‘zlar turli usullar orqali hosil bo‘ladi. Jumladan, compounding (qo‘shma so‘z yasash), conversion (so‘z turkumini o‘zgartirish), derivation (qo‘shimchalar orqali yasash), clipping (qisqartirish) va blending (so‘zlarni aralashtirish) kabi jarayonlar muhim hisoblanadi. Maqolada ushbu jarayonlar asosiy xususiyatlari hamda ingliz tilida misollar orqali ularni qo‘llanilishini ko‘rib chiqadi.*

**Kalit so‘z:** *So‘z yasalishi, word formation, compounding, derivation, conversion, clipping, blending, ingliz tili.*

So‘z yasash tushunchasi. So‘z yasalishi tilshunoslikning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, u yangi so‘zlarning qanday hosil bo‘lishini o‘rganadi. Ingliz tilida so‘z yasash jarayonlari tilning lug‘at boyligini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Til jamiyat rivoji bilan birga o‘zgarib boradi. Yangi texnologiyalar, ilmiy kashfiyotlar, madaniy jarayonlar va ijtimoiy o‘zgarishlar natijasida yangi tushunchalar paydo bo‘ladi. Bu tushunchalarni ifodalash uchun esa yangi so‘zlar zarur bo‘ladi. Ingliz tilida yangi so‘zlar turli xil usullar orqali hosil qilinadi. Bu usullar tilshunoslikda Word formation processes deb ataladi. Ushbu jarayonlar orqali til yangi so‘zlar bilan boyib boradi va mavjud so‘zlarning ma‘nolari kengayadi. So‘z yasalishi jarayonlari ingliz tilining morfologik tizimi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Morfologiya so‘zlarning tuzilishini va ularning shakl jihatdan o‘zgarishini o‘rganadi. Zamonaviy ingliz tilida so‘z yasashining bir necha asosiy usullari mavjud. Ularga compounding, derivation, conversion, clipping, blending, borrowing va coinage kabi jarayonlar kiradi. Ushbu jarayonlar orqali ingliz tilida har kuni yangi so‘zlar paydo bo‘lib bormoqda.

Compounding (qo‘shma so‘z yasash). Compounding ingliz tilida eng keng tarqalgan usul hisoblanadi.

Toothbrush (tooth + brush)

Football (foot + ball)

Classroom (class + room)

Compounding jarayoni ingliz tilida yangi texnika va ilmiy terminlar yaratishda ham keng qo‘llaniladi. Masalan, smartphone, laptop, website kabi so‘zlar ham qo‘shma so‘zlarga misol bo‘la oladi.

Derivation (qo‘shimchalar orqali so‘z yasash) Derivation ingliz tilida so‘z yasashining yana bir muhim usuli hisoblanadi. Bu jarayonda so‘zning boshiga yoki oxiriga qo‘shimchalar qo‘shilib, yangi so‘z hosil qilinadi. Ingliz tilida qo‘shimchalar prefix va suffix deb ataladi.

15-Aprel, 2026-yil

Prefix so‘z boshida qo‘llaniladi va ko‘pincha so‘zning ma‘nosini o‘zgartiradi.

Masalan:

Possible → impossible

Happy → unhappy

Known → unknown

Suffix esa so‘z oxirida qo‘shilib, yangi so‘z turkumini hosil qilishi mumkin. Masalan:

Teach → teacher

Happy → happiness

Kind → kindness

Derivation jarayoni ingliz tilida juda samarali hisoblanadi. Chunki bitta so‘zdan bir nechta yangi so‘z hosil qilish mumkin. Masalan, development, developer, developing kabi ko‘plab yangi shakllar hosil bo‘ladi.

Conversion (so‘z turkumini o‘zgartirish). Conversion ingliz tilida keng tarqalgan so‘z yasash jarayonlaridan biridir. Bu jarayonda so‘z shakli o‘zgarmaydi, lekin uning grammatik vazifasi o‘zgaradi. Boshqacha aytganda, bir so‘z turkumi boshqa so‘z turkumiga aylanadi. Masalan, email so‘zi dastlab ot sifatida ishlatilgan bo‘lsa, keyinchalik fe‘l sifatida ham qo‘llanila boshlagan: to email someone. Xuddi shuningdek, Google so‘zi ham fe‘l sifatida ishlatiladi: to Google information.

Conversion jarayoni ingliz tilining soddaligi va moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Chunki yangi so‘z hosil qilish uchun qo‘shimcha yoki o‘zgarish talab qilinmaydi. Bu jarayon tilni yanada qulay va samarali qiladi.

Clipping (qisqartirish). Clipping jarayonida so‘zning bir qismi tushib qoladi va qisqartirilgan shakli ishlatiladi. Bu jarayon ko‘pincha kundalik nutqda uchraydi. Masalan:

Advertisement → ad

Laboratory → lab

Examination → exam

Clipping natijasida hosil bo‘lgan so‘zlar ko‘pincha norasmiy nutqda keng qo‘llaniladi. Biroq, vaqt o‘tishi bilan bu so‘zlar rasmiy tilga ham kirib borishi mumkin.

Blending (so‘zlarni aralashtirish) . Blending jarayonida ikki so‘zning bir qismi qo‘shilib yangi so‘z hosil qiladi. Bu jarayon ayniqsa zamonaviy ingliz tilida juda keng tarqalgan. Masalan:

Smoke + fog = smog

Breakfast + lunch = brunch

Motor + hotel = motel

Blending usuli reklama, texnologiya va media sohalarida yangi so‘zlar yaratishda ko‘p ishlatiladi.

Borrowing (o‘zlashma so‘zlar). Borrowing boshqa tillardagi so‘zlarning ingliz tiliga kirib kelish jarayonidir. Ingliz tili tarixi davomida ko‘plab tillardan so‘zlarni qabul qilgan. Masalan, fransuz, lotin va yunon tillaridan ko‘plab so‘zlar o‘zlashgan. Masalan:

Restaurant (fransuz tilidan)

Ballet (fransuz tilidan)

15-Aprel, 2026-yil

Piano (italyan tilidan)

Borrowing jarayoni ingliz tilining boyishiga va xalqaro til sifatida rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz tilida so‘z yasaliş jarayonlari tilning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Compounding, derivation, conversion, clipping, blending va borrowing kabi usullar orqali so‘zlar hosil qilinadi. Ushbu jarayonlar ingliz tilining lug‘at boyligini kengaytiradi va tilni zamonaviy ehtiyojlarga moslashtiradi. Shuningdek, so‘z yasaliş jarayonlarini o‘rganish ingliz tilini chuqurroq o‘rganishga yordam beradi. Lingvistika nuqtai nazardan bu jarayonlar til tizimining rivojlanishi va o‘zgarishini ko‘rsatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. The Study of Language — George Yule. Cambridge University Press, 2010.
2. Word Formation in English — Ingo Plag. Cambridge University Press, 2003.
3. An Introduction to Language — Victoria Fromkin, Robert Rodman, Nina Hyams. Wadsworth Publishing, 2011.
4. Introducing Morphology — Laurie Bauer, Rochelle Lieber, Ingo Plag. Edinburgh University Press, 2013.
5. English Word Formation — Hans Marchand. Cambridge University Press.

Global  
Science  
Publication